



## **RIVOJLANGAN DAVLATLARDA MAK TABGACHA TA'LIM TIZIMI (YAPONIYA VA GERMANIYA)**

**Boltaxo'jayeva Shabnambonu**

*ShDPI Pedagogika fakulteti  
maktabgacha ta'lism yo'nalishi 2 -21  
guruh talabasi*

**Annotatsiya:** maqolada maktabgacha ta'lism haqida so'z boradi. Rivojlangan davlatlardagi maktabgacha ta'lism tizimi haqida turli xildagi ma'lumotlar berilgan. Xorijiy davlatlardagi maktabgacha ta'lism tizimini o'rganib, ulardag'i ilg'or tajribalarini sharoitimidga moslab tadbiq qilish kerakligi haqidagi fikrlar aytib o'tilgan va turli xildagi tavsiyqlar berilgan.

**Kalit so'zlari:** maktabgacha ta'lism, chet el tajribasi, Yaponiya maktabgacha ta'limi, Germaniya maktabgacha ta'limi, Fransiya maktabgacha ta'limi.

Insoniyat jamiyatining hozirgi zamon rivojlanish darjasidagi mustaqil respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarda o'z aksini topmoqda. Bunday o'zgarishlar shak-shubhasiz, barkamol shaxsnii tarkib toptirish bilan chambarchas bog'liqdir. Biz foydalanadigan ta'lism texnologiyalari shaxsnii rivojlanishiga, mustaqil ishslashga o'rgatishi kerak.

Rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o'rganib, ularni sharoitimidga moslab tatbiq qilish kerak. Misol tariqasida rivojlangan davlatlardan biri bo'lgan Yaponiya ta'lism tizimini ko'rib chiqamiz. Yaponiya juda tez rivojlanayotgan davlat bo'lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehnatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog'liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so'nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish - bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan.

Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo'llash siyosati eng muhim o'rinni tutadi. Hozirgi davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo'yicha dunyoda 2- o'rinda turadi. Yaponiya o'z oldiga 2 vazifani qo'yadi 1-boyish, 2-g'arb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lism tizimini tubdan o'zgartirish kerakligini anglatdi. Maktabgacha ta'limga Yaponiyada katta e'tibor beriladi. Yaponiyalik Masaru Ibuku bolalarning rivojlanishida qo'llaniladigan innovatsion metodlar ishlab chiqqan bo'lib, u o'zining "3 yoshdan keyin kech" asarida ham yuqoridagi fikrlarni ta'kidlab o'tgan. Masaruning ta'kidlashicha inson miyasining 80 foizi 3 yoshgacha shakllanib bo'ladi, biroq ta'limga 3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ta'lism dasturlari deyarli mavjud emas.



Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollar uchun onalik birinchi o'rinda turadi. Ko'pgina yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasi ularning hayotlarining maqsadlaridir. Yaponiyada oilaviy byudjetning katta qismi bolaning ta'limga sarflanadi. Oilada bola yaxshi bilim olishi ushun barcha shart- sharoitlar yaratib beriladi. Imtixon paytlarida esa bolalar uy yumushlaridan ozod etiladilar.

Ota-onalar farzandlariga barcha sohada o'rnak namunadirlar. Ular o'z bolalari o'qishiga yordam berish ushun juda ko'p o'qiydilar. Onalar o'zlarini farzandlarining oqil, dono, muloyim, odil va mehnatsevar bo'lib o'sishlari uchun oila sulolasi va davlat oldida mas`ul deb hisoblaydilar.

Yaponlar bolaning erta voyaga yetishi tarafдоридилар. Turli yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga urg'u beradi. Masalan,

1 yoshda o'zigaishonch hissini uyg'otish,  
2 yoshda amaliy san'at qo'lli mehnatini ko'rsatish,  
3 yoshda burch hissini tarbiyalash,  
4 yoshda yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o'rgatish,  
5 yoshda liderlik hislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga o'rgatish.

Bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. O'g'il bolaga oilaning bo'lajak tayanchi sifatida qaraydilar va qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadilar. Qizlarni esa uy ishlariga tayyorlaydilar. Yaponiya bog'chalarida bolalarni 8 kishilik kichik guruuhlar xanlarga bo'ladi. Bu bolalarga bog'chada o'z ish o'rni ajratiladi, ular o'z xanlariga nom tanlaydilar. SHu tariqa eng kichik yoshdan jamoada ishlashni o'rgatadilar. Bu guruhdagi har bir o'quvchi guruhda o'z o'rniga ega bo'lishi lozim. Bunday xanlar keyingi ta'limg bosqichida ham qo'llaniladi. O'rta muktabda xanlar doimiy emas, ular yangi sharoitlarga tezroq ko'nikish uchun har 5 oyda o'zgartirib turiladi.

Yaponiya bog'chalariga 3- 5 yoshdag'i bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog'chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko'nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'la olishni o'rgatishdan iborat. SHuningdek, og'zaki nutq, so'zlarni to'g'ri qo'llashni o'rgatishga ham katta e'tibor beriladi. Ertaklar, kitoblar, musiqa, sport o'yinlari, rassomlik kabi shaxsning ijodiy xususiyatlariga qiziqish uyg'otiladi. Bolalar bog'chasi Yaponiyada vatan fuqarosini shakllantirish tizimining 1-bosqichi hisoblanadi. Mustaqil faoliyat, jamoaviy ong, ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor



qaratiladi. Bolalar bog‘chasining asosiy vazifasi bolani mакtabga tayyorlashdir. Bu yerda rasm, musiqa, ritmika, jismoniy tarbiya bo‘yicha mashg‘ulotlar o’tiladi.

Individuallik, u qanchalik yaxshi bo‘lmasin, o‘quvchilarni o‘ziga jalb qilmaydi, bolalar jamoasi tomonidan qabul qilinmaydi. Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko‘plab metodik qo’llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio vatelevideniya orqali ko‘plab pedagogik maslahatlar berib boriladi. Maktabgasha tarbiya yoshdagi bolalar ushun ota- onalar oyiga o’rtacha 2- 3 kitob sotib olishadi. SHu yoshdagi bolalar uchun oyiga 40 jarida nashr etiladi, ota-onalarning mutlaq ko‘pchiligi bu jaridalarga obuna bo‘lishadi. Bola maktabga borgunga qadar o‘qishni, yozishni, oddiy hisoblash ko‘nikmalarini egallashi zarur. Maktabgacha ta’lim tizimi Germaniya ta’lim tizimida muhim bosqich hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim bolalar bog‘chasi (Kindergarten)da amalga oshiriladi. Bolalar bog‘chasiga 3-6 yoshdan maktab yoshigacha borishadi.

Rivojlanishdan orqada qolgan yoki yoshi mos bosqichga yetmagan bolalar maktabgacha sinflarda (nem. Vorklassen) va maktablar qoshidagi bolalar bog‘chasida (nem. Schulkindergarten) taxesil oladilar. Bu bog‘chalar alohida FE qoidasiga ko‘ra yoki maktabgacha sektorgayoki boshlang‘ich ta’lim sektoriga bo‘ysinadi. Maktabgacha ta’lim majburiy emas, lekin ko‘pgina FEda rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun majburiy hisoblanadi. Bolalar bog‘chalari ta’limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi emas, balki yosh avlodni qo‘llab-quvvatlash muassasalari tizimiga kiradi. Bog‘chalarni mablag‘ bilan ta’minalash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalari, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasida.

1996 yildan boshlab bolalar bog‘chasiga qatnash uchun xuquqiy me’yorlar ishlab chiqildi. Bolalar bog‘chasiga farzandlarni berish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Bolalar bog‘chasiga qatnash uchun ota- onalardan ularning daromadiga qarab ma’lum miqdorda to‘lov olinadi. Maktabgacha bolalar bog‘chasi tayyorlov sinflari va kirish guruhlari mакtab ta’limining birinchi bosqichiga kiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekistonni ta’lim tizimiga xorij pedagogikasidagi ilg‘or jixatlarni o‘zlashtirish, yangi - yangi samarali o‘quv predmetlarini ta’limtarkibiga kiritish bilan jahon davlat standartlari darajasiga olib chiqish osonlashadi. Buning uchun esa biz rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi quyidagi ilg‘or tajribalarni ta’lim tizimimizda qo‘llay bilishimiz maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa rivojlanga davlatlarning maktabgacha ta’lim tizimidagi metodlarni va taplim berish usullarini bizning vatanimizga joriy qilsak nur ustiga alo nur bo‘ladi.



**Foydalaniqlanadabiyotlar:**

1. Isaqulova N. J, Qosimova Z. H. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim T., 2011
2. Mutualipova M.J .Xodjaev B.X. Qiyosiy pedagogika.-T:2015y.
3. Yo'ldoshev G'.J. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim T., 1995

**Internet resurslari:**

1. www.edu.uz.
2. www.tdpu.uz
3. www.pedagog.uz
4. www.Ziyonet.uz

